


"O`zbekiston san'ati tarixi" kitob albomi: tarixdan so'zlovchi san'at to'g'risidagi manba

Islom sivilizatsiyasi markazi granti asosida amalga oshirilayotgan yana bir loyiha dunyo yuzini ko`rdi. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti "Tasviriy va amaliy bezak san'ati" bo`limi mudiri, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik Akbar Hakimovning "O`zbekiston san'ati tarixi" kitob albomi nashrdan chiqdi.





Kitobda san'atning eng qadimgi dunyo bosqichidan to bugungi O'zbekiston san'ati bosqichigacha bosib o'tgan yo'li hikoya qilinadi. Unda yurtimiz va dunyo muzeylarida saqlanayotgan xalqimiz va millatimizga tegishli barcha san'at javohirlari to'g'risida ilmiy-tarixiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kitob albom Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyining san'at bo'limi uchun asosiy nazariy va amaliy qo'llanma bo'la oladi.